

Sholg`om navlarining hosildorligiga o`g`it meyori, ko`chat qalinligining ta`siri hamda uning hosilini yig`ish va saqlash

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasida dotsenti S.Y. Babajanova
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti G.J. Sabirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada sholg`om (*Brassica rapa subsp. rapa*) ekinining hosildorligiga o`g`it me`yori va ko`chat qalinligining ta`siri hamda hosilni yig`ish va saqlash texnologiyalari o`rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida optimal o`g`it miqdori va ko`chat zichligi aniqlanib, hosildorlikning ortishiga sezilarli ta`sir ko`rsatishi aniqlangan. Hosilni to`g`ri yig`ish va saqlashning sholg`om sifati hamda bozorbopligini saqlab qolishda ahamiyati yoritilgan.

Kalit so`zlar: sholg`om, hosildorlik, o`g`it, ko`chat qalinligi, saqlash, agrotexnika.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo`llagan Murojaatnomasida, kambag`allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko`paytirishda eng tez natija beradigan omil bu-qishloq xo`jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish ekanligini alohida ta`kidlab o`tganlar.

Bizga ma`lumki, qishloq xo`jalik o`simliklaridan yuqori va barqaror hosil olish uchun muayyan o`simlik navlarining bioekologik xususiyatlarini inobatga olgan holda agrotexnik tadbirlarni o`z muddatlarida sifatli qilib o`tkazmoq ayni muddao hisoblanadi. Shularni hisobga olgan holda Xorazm vohasi sharoitida dehqonchilik qilishni o`ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Sholg`omning “Namangan mahalliyisi” va “Samarqand mahalliyisi” navlarini biz tajriba maydonlarida ikki xil ko`chat qalinligi va oralig`ida ilmiy tadqiqotlarimizni olib borganmiz. Sholg`om navlarini urug`lari unib chiqqandan so`ng begona otlardan tozalaniib yagona qilingan. Bunda sholg`om navlarining oralig`i 1-va 2-variantda 10 sm dan, 3- va 4- variantda 15 sm dan ko`chatlar qoldiriladi. Bunda xar bir metr kvadratda yerda 1-va 2-variantda 15 ta ko`chat, 3-va 4-variantda 20 tadan ko`chat qoldiriladi. Birinchi yagona sholg`om navlari unib chiqqanda, ikkinchisi esa 1-2 ta barg chiqqanda o`tkaziladi. Bunda tup oralari 10-

15 sm kenglikda qoldiriladi. Bundan keyingi parvarish o`z vaqtida sug`orish, qator oralarini yumshatish va zararkunanda hamda kasalliklarga qarshi kurashishdan iborat hisoblanadi. Agar sholg`om navlariga yuqori me`yorda ma`danli o`g`itlar bilan oziqlantiriladigan bo`lsa, o`simliklarning vegetativ massasi yani barglari, poyasi, ldizi haddan tashqari o`sib ketadi, bunday hollarda hosilga zarar yetkazmaslik uchun o`g`itlar o`rtasidagi nisbat fosforni ko`paytirish hisobiga o`zgartirilishi lozim. Sholg`om navlariga solinadigan o`g`itlar meyori xar bir viloyatining tuproq xossasi, agrotexnologiyasi, rejalashtirilgan hosil miqdoriga qarab belgilanadi (1-jadval).

1-jadval.

Sholg`om navlarining hosildorligiga o`g`it meyori va ko`chat qalinligining ta`siri.

№	Sholg`om navlari	Ma`danli o`g`itlar meyori, kg/ga	Ko`chat qalinligi, m²/dona	Hosildorlik, t/ga
1-variant	Namangan mahalliyi	N ₁₂₀ P ₉₀ K ₆₀	15	40
2-variant	Samarqand mahalliyi	N ₁₂₀ P ₉₀ K ₆₀	15	32
3-variant	Namangan mahalliyi	N ₁₂₀ P ₉₀ K ₆₀	20	30
4-variant	Samarqand mahalliyi	N ₁₂₀ P ₉₀ K ₆₀	20	24

Yuqoridagi jadvalda sholg`omning ikki xil naviga qo`llanilgan ma`danli o`g`itlarning meyorlari, hamda qo`shqator qilib ekilganda xar bir metr kvadrat yerdagi ko`chatlar soni va shu agrotexnik tadbirlar qo`llanilganda olingan hosildorlik ko`rsatib o`tilgan.

Jumladan jadvalning 1-variantida sholg`omning “Namangan mahalliyi” naviga ma`danli o`g`itlardan N₁₂₀P₉₀K₆₀ kg/ga me`yorda qo`llanilib, xar bir metr hisobiga ko`chat qalinligi 15 dona bo`lganida bir gektar hisobidan olingan hosildorlik 40 tonna bo`lgan,

2-variantda esa sholg`omning “Samarqand mahalliyisi” naviga ma`danli o`g`itlardan $N_{120}P_{90}K_{60}$ kg/ga me`yorda qo`llanilib, xar bir metr hisobiga ko`chat qalinligi 15 dona bo`lganida bir gektar hisobidan olingan hosildorlik 32 tonna bo`lgan.

3-variantida sholg`omning “Namangan mahalliyisi” naviga ma`danli o`g`itlardan $N_{120}P_{90}K_{60}$ kg/ga me`yorda qo`llanilib, xar bir metr hisobiga ko`chat qalinligi 20 dona bo`lganida bir gektar hisobidan olingan hosildorlik 30 tonna bo`lgan, tajribaning

4-variantida esa sholg`omning “Samarqand mahalliyisi” naviga ma`danli o`g`itlardan $N_{120}P_{90}K_{60}$ kg/ga me`yorda qo`llanilib, xar bir metr hisobiga ko`chat qalinligi 15 dona bo`lganida bir gektar hisobidan olingan hosildorlik 24 tonnadan iborat bo`lgan.

Bu esa sholg`om navlaridan yuqori va sifatli hosil olishda o`g`it meyorlariga va ko`chat qalinligiga e`tibor qaratish kerakligini bildiradi.

Sabzavot mahsulotlarining sifatini yaxshilash uchun oliy navlarni maqbul texnologiya bo`yicha yetishtirish, shuningdek, ularni o`z vaqtida tashib keltirish hamda yaxshi saqlash hisobiga erishiladi. Sholg`om va boshqa sabzavot ekinlarida hosilning pishishi 2 xilga bo`linadi:

1. Texnik yoki xo`jalik jihatdan pishish. Bunda mahsulot sotish, saqlash, tashish va qayta ishlashga yaroqli bo`lgan davri.

2. Biologik yoki fiziologik pishish. Bunda esa urug` to`la yetilib, o`simlik rivojlanishi to`la o`tilib bo`lgan davr.

Sabzavot ekinlarda texnik va biologik pishishlar bir vaqtda yoki turli muddatlarda kuzatiladi. Sholg`om navlarida biologik va texnik pishish bir vaqtda kuzatiladi. Qishda uzoq saqlash uchun sabzavot-poliz va kartoshka hosili to`la pishganda yig`ishtirilishi kerak, chunki pishmagan meva, piyoz, karam, ildizmeva yaxshi saqlanmaydi. Hosilni yig`ishda ekinlarning past haroratga bardoshlilikligi hisobga olinadi. Daladagi hosilini yig`ishtirib olish bo`yicha sabzavot ekinlari 3 guruhga bo`linadi:

1. Hosili bir martada butunlay yig`ishtiriladigan ekinlar (kechki karam, ildizmevalilar, piyoz, sarimsoq, qovoq, kartoshka);

2. Bir yoki bir necha marta saralab teriladigan ekinlar (ertagi oqboosh karam, gulkaram, qovun va tarvuz tezpishar navlari);

3. Hosili texnik pishgandan boshlab ko`p marta teriladigan ekinlar (pomidor, qalampir, bodring, loviya kabilar).

Sabzavot ekinlar hosilini yig`ish, saralash va tashishda ehtiyot bo`lish, shikastlanish, kesilishdan saqlash lozim. Aks holda ular chiriydi va buziladi. Sabzavotlar hosilini yig`ishtirish ko`p mehnat talab qiladi. Umumiy mehnatning 65-75 foizi shunga to`g`ri keladi. Hosilni yig`ib-terib olishda turli mashina va moslamalardan foydalaniladi. Bular ichida ko`p ishlatiladiganlari URD-8, palak o`rsh mashinasi va KIR-1,5 B rotatsion maydalagich - kosilka kartoshka ildizmeva, yem-xashak o`tlarini yig`ib olishga mo`ljallangan. OPKSH-1,4, YeM-11, LKG-1,4, MSK-1 markali mashinalar ildizmevali, piyoz va karam hosilini yig`ishda qo`llaniladi. Ular T-16, T-25, T-40, Belarus traktorlariga agregatlanadi. Platformalardan esa POU-2, PT-3,5 keng qo`llaniladi. Sholg`om kovlashda KTN-2B, KST-1,4 kovlagichlar MTZ-80 traktoriga osilib yoki tirkalib ishlatiladi. Yig`ib olingan sabzavotlar hosili quritiladi va davlat standartlari (GOST) ga muvofiq tovar mahsulotiga hamda chiqitga ajratiladi. Sholg`om sovuqqa chidamli bo`lsada, ildiz mevalari tuproq muzlab qolmasdan oldin noyabr oyida yig`ib olinishi kerak. Diametri o`rtacha 6-8 sm kattalikdagi sholg`omning sifati yuqori bo`ladi. Sholg`om mevalari hosili qo`lda avval saralab yig`ishtirilib, boylam holiga keltiriladi, so`ngra, SNU-3S, SNSH-4, SNS-2M markali kovlagichlar bilan kavlanadi. Katta maydonlarda yetishtirilgan sholg`omlarni maxsus texnikalar bilan yig`ib olinadi. Erta bahorda ekilgan oddiy va salatbop sholg`om ildizmevalari diametri 5-6 sm bo`lganda yoki o`simliklar gulpoya chiqargan paytda yoppasiga yig`ishtirib olinadi.

Barg sholg`om barglarining bo`yi 25-30 sm bo`lganda yig`ishtirish maqsadga muvofiq. Sholg`om turpga qaraganda nozikroq bo`lganligi bois saqlanadigan o`ralar kichikroq qilib kavlanadi. Ko`pchilik xo`jaliklarda sholg`om uchun o`raning kengligi 65-70 sm, chuqurligi 85-90 sm va uzunligi 2,5-3,5 m qilinadi. Sholg`om o`rasiga xas va cho`plar tushmasligi lozim. O`ra to`lgach, ustidan 35-40 sm qalinlikda tuproq tortib ko`miladi. Ko`klamda o`ralar ochilib, sholg`om saralanadi va yerto`lalarda qum ostida saqlanadi. Sun`iy sovutiladigan binolarda sholg`om uchun eng maqbul saqlash harorati 0-2⁰S, xavoning nisbiy namligi esa 86-95 % bo`lmog`i lozim.

Yerto`lada tuproqqa ko`milgan holda sholg`om navlari kuzdan bahorgacha saqlanishi mumkin. Sovutgichlarda yuqori namlik va ventilyatsiyaning yaxshi emasligi tufayli sholg`om bir-ikki oydan ko`p saqlanmaydi. Xona haroratidagi qorong`i joyda bu sabzavot uzog`i bilan bir necha hafta davomida saqlanishi

mumkin. Bunday sharoitda uzoq vaqt davomida saqlanganda u achchiq ta`m ola boshlaydi. Sabzavot po`stlog`idan tozalanib, maydalangan holda muzlatgichda bir necha oy davomida saqlanishi mumkin.

Demak sholg`omning navlaridan yuqori va sifatli hosil olish sholg`om navlarining urug`ini ekish muddatlariga, oziqlantirish meyorlariga va ko`chat qalinligiga bog`liq.

Bundan tashqari yetishtirilgan hosilni o`z vaqtida nes-nobud qilmasdan yi`g`ishtirib olish va uni yil davomida aholi dasturxonida bo`lishini ta`minlash uchun o`ralar, yerto`lalarda, sun`iy sovutiladigan binolarda eng maqbul sharoitlarda saqlash zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Ch. Bo`riyev “Sabzavot ekinlari biologiyasi” T. “O`zMEDIN ”-2002y.
2. B.Zuev, Q.Qodirxo`jayev, M.M.Odilov, U.I.Akramov “Sabzavotchilik va polizchilik” T.2009y.
3. O.Qodirxo`jayev, V.Zuev, A.M.Mirsaidovich, A.U.Ikramjonovich “Sabzavot chilik va polizchilik” Toshkent-2010y
4. G` .M. Satipov, I.Ismailova “O`simlikshunoslik ” Xiva 2020 y.

Research Science and Innovation House